


2026-yil 20-aprel

## 2026 yilning birinchi choragida kimyo tarmog'ida 4,6 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi



**2026-yilning birinchi choragida kimyo tarmog'ida 4,6 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi**

Jami ishlab chiqarish: 4,6 trln so'm

Mineral o'g'itlar: 208,8 ming tonna



Azotli – 124,7  
ming tonna



Fosforli – 28,4  
ming tonna



Kaliyli – 55,7  
ming tonna

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim ko'rsatkichlar

Joriy yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoati korxonalari tomonidan jami 4,6 trillion so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi 208,8 ming tonnani tashkil etdi. Jumladan, 124,7 ming tonna azotli, 28,4 ming tonna fosforli hamda 55,7 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi. Qayd etish joizki, mazkur ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi tarmog'ini mineral o'g'itlar bilan uzluksiz ta'minlash, yer unumdorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya va texnik qayta jihozlash ishlari, investitsiya loyihalarining izchil ro'yobga chiqarilishi ishlab chiqarish hajmlarini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2026-yilning-birinchi-choragida-kimyo-tarmog-ida-4-6-trln-so>